

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
PEDAGOGIKA	
T.Egamberdiyeva, O.Ashurova Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
U.Maqsudov, R.Rahmonova Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
M.Suyunova Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
N.Saidova, B.Abdullayeva Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli.....	20
X.Tojiboyeva O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
A.Kalliyev Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
I.Usmonaliyev Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
FALSAFA, SIYOSAT	
A.Yuldashov O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
Q.Aliqulov Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
TARIH	
X.Boymirzayev, Z.Jobborov Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
X.Mamajonov Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
A.Abduxalimov Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
I.Yusupov O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
I.Turdiyev Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari	67
Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
ADABIYOTSHUNOSLIK	
L.Axmadaliyev Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85

SOVET HUKUMATIDA 20-30 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TARG'IBOT-TASHVIQOT ISHLARI TARIXIDAN

ИЗ ИСТОРИИ ПРОПАГАНДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В 20-30 ГОДЫ

FROM THE HISTORY OF THE PROPAGANDA OF THE SOVIET GOVERNMENT IN THE YEARS OF 20-30

¹Boymirzayev Xurshidjon Karimjanovich¹, Jobborov Zokirjon Apdug'appor o'g'li²

¹Boymirzayev Xurshidjon Karimjanovich

– Namangan davlat universiteti Tarix kafedrasida katta o'qituvchi (Phd).

²Jobborov Zokirjon Apdug'appor o'g'li

– Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi.

Аннотация

Mazkur maqolada Sovet hukumati O'zbekistonda o'z hokimiyatini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari xususida so'z yuritilgan. Maqola mavzusini tadqiq etishda adabiyotlar atroflicha tahlil qilinib keltirilgan, faktlar xulosalangan. Sovet hokimiyati boshqaruvining asosiy quollaridan biri hisoblanmish targ'ibot kompaniyalarining maqsadlarini ochib berilgan. Sovetlarning mafkuraviy tashviqot ishlarining samarali usullari o'rganilib tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur targ'ibot-tashviqot ishlarida kommunistik mafkura dohiylari sifatida e'tirof etilgan shaxslarning bo'ttirilgan ma'lumotlaridan ken g'foydalanilganligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается пропагандистская работа, проводимая советским правительством в Узбекистане по укреплению своей власти. При изучении темы статьи подробный анализ литературы обобщает факты. Одним из главных инструментов советского правительства было раскрытие целей наших пропагандистских кампаний. Изучены и проанализированы эффективные методы советской идеологической пропаганды. Особое внимание уделяется широкому использованию в этой пропагандистской работе преувеличенных сведений о людях, признанных гениями коммунистической идеологии.

Abstract

This article discusses the propaganda work carried out by the Soviet government in Uzbekistan to strengthen its power. When studying the topic of the article, a detailed analysis of the literature summarizes the facts. One of the main tools of the Soviet government was to reveal the aims of our propaganda campaigns. The effective methods of Soviet ideological propaganda have been studied and analyzed. Particular attention is paid to the widespread use in this propaganda work of exaggerated information about people recognized as geniuses of communist ideology.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, sovet hokimiyati, bolsheviklar, "baynalminalchilik", "Glavit", Proletar, "vatanparvarlik", "xalqlar dohiysi", tobelik, itoatkorlik, ruslashtirish.

Ключевые слова: Российская империя, советская власть, большевики, «интернационализм», «главит», пролетарский, «патриотизм», «народный гений», субординация, послушание, русификация.

Key words: Russian Empire, Soviet power, Bolsheviks, "internationalism", "glavit", proletarian, "patriotism", "people's genius", subordination, obedience, Russification.

KIRISH O'zbekiston tarixining sovet hokimiyati hukmronlik qilgan yillari (1917-1991-yillar) xalqimiz tarixida o'zining qarama-qarshiliklari va murakkabligi bilan alohida o'rin tutadi. 1917-yilning oktyabr oyida bolsheviklarning davlat to'ntarishi orqali hokimiyatga kelishi bilan Rossiya imperiyasi boshlagan mustamlakachilik siyosati yangi shaklda davom eta boshladi.

Oktyabr oyidagi harbiy to'ntarish orqali hokimiyatni egallab olgan sovetlar hukumati O'rta Osiyo hududlarida mustamlakachilik tartib-qoidalarini mustahkam poydevor asosida qurish uchun ikki xil kurash yo'lini tanlab olganliklari ma'lum.

Birinchi yo'l, istiqloq va milliy ozodlikka intilgan tub yerli aholini zo'rlik va kuch bilan bostirish, ularni qirib bitirishdan iborat. Bu yo'lni sovetlar tish-tirnog'igacha zamonaviy harbiy quollar bilan ta'minlangan qizil armiya yordamida amalga oshirdilar. Bu yo'l XX asrning 30-yillari o'rtalarigacha davom etdi.

Ikkinchi yo'l mafkuraviy jabhada olib borildi. Bundan sovetlar hukumati va kompartiya keng mehnatkashlar ommasining ongiga tinch yo'l bilan kurashish vositalari orqali, ya'ni g'oyaviy-siyosiy va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish yo'lidan bordi [1, 246].

TARIX

Bolsheviklar rejimi 75 yil davom etgan hukmronlik yillari davomida sovet kishisi hayot tarzining bir bo'lagi bo'lgan targ'ibot va tashviqot mexanizmini yaratadi.

Xalqlar "dohiysi" V. I. Leninning "Butun dunyo proletarlari birlashingiz!" shiorining o'ziyoq qurilajak davlatning targ'ibot mashinasini yurgizib bergan edi. "Partiya ishi va partiya adabiyoti", "adabiyot ishi", ya'ni ommaviy axborot vositalari, kitob va kino ham yagona "umumproletar ishi" ning harakatga keltiruvchilari edi[2,2].

Sovet hukumati O'zbekistonda ham "shaklan milliy va mazmunan sotsialistik" tuzum va madaniyat yaratish uchun barcha vositalarni qo'lladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maorif, fan, adabiyot, san'at va ommaviy axborot vosilari orqali insonlar ongidan barcha milliylikni siqib chiqarib, "sotsialistik", "baynalminalchilik" qobig'iga o'ralgan, aslida esa qullik, tobelik, itoatkorlik, ruslashtirish-assimilyatorlik mafkurasi bosqichma-bosqich tizimli tarzda singdirib borildi[2,2].

Ayniqsa, targ'ibot uchun ko'rgazmali maktablarning tashkil etilishiga katta e'tibor berildi. Masalan 1919-yilda Toshkentning eski shahar qismida, Beshyog'ochda Almayi nomidagi 1- va 2-bosqich maktabi ochildi. Uning huzurida maktab-internat ham bor edi. Mashg'ulotlar shunday tashkil qilindiki, milliy asoslardan uzilgan holda, yangi g'oyalarni singdirishini asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi.

O'zbek tilidagi darsliklar rus tilidagi darsliklarga qaraganda bir necha baravar ko'p edi. Lekin o'quv adabiyotlari bilan bir qatorda, Marks, Trotskiy, Lunacharskiy portretlari, ya'ni sof targ'ibotchilik tarzidagi o'quv vositalari ham ko'plab miqdorda bosilib chiqdi[3, 141].

Sovet davlati 1922-yilda "Glavlit" tashkilotini tuzdi. Aynan ushbu tashkilot keyingi yillar davomida ommaviy axborot vositalari ustidan to'liq nazoratni amalga oshirdi. "Glavlit" xodimi har bir nashrni kuzatib boradigan, har bir so'z va murojaatni filtdan o'tkazadigan ulkan tizim yaratildi.

1939-yilda "Glavlit" xodimlar soni 6027 kishini, 1947-yilga kelib esa 6453 kishiga ortgani nazoratning qanchalik keng qamrovda olib borilganidan dalolat beradi[4,3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Targ'ibotning eng ta'sirchan vositasi adabiyot sohasiga katta e'tibor berildi. O'zbekiston kommunistik partiyasi o'zlari tomonidan tashkil etilgan "Qizil qalam" jamiyati o'rniga O'zbekiston Proletar yozuvchilar uyushmasini tashkil etdilar. Yuqoridagi tashkilotning nomlanishi ham partiya targ'iboti uchun xizmat qilganligini anglatib turibdi. Bundan tashqari, asosiy targ'ibot, ya'ni sovet tuzumi uchun kerakli va so'zsiz bo'ysunadigan avlodni yaratish maqsadida yasli va bog'cha yoshidanoq "vatanparvarlik" ruhidagi she'r va qo'shiqlar, shior va plakatlarlar bolalar ongiga singdirib borildi. Bu jarayon maktablarda, oliy o'quv yurtlarida, pioner otryadlarida, komsomol tashkilotlarida davom ettirildi.

20-30-yillarda sovet tuzumi targ'iboti bilan shug'ullanish uchun maxsus tashkilotlar va bo'limlar faoliyat ko'rsata boshladi. Kompartiyaning targ'ibot va tashviqot bo'limi butun sovet davri tarixida targ'ibot va tashviqot ishlariga boshchilik qilgan eng oliy organ sifatida muhrlanib qoladi.

Bundan tashqari, "xalqlar dohiysi" V. I. Lenin topshirig'i bilan sovet hukumatining dastlabki paytlaridayoq Siyosiy o'qish Bosh Boshqarmasi tashkil etilgan edi. 1935 yil may oyida Stalin ushbu tashkilotni beshta bo'limga, ya'ni nashr va nashriyotlar, partiya targ'ibot va tashviqoti, maktab, fan, madaniy va ma'rifiy ishlar bo'limiga ajratdi[5,159].

Sovet hukumati o'z hukmronligining dastlabki yillarida partiya siyosatini targ'ibot qilishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalandi. Turkistonda oktyabr inqilobidan keyin milliy nashrlarni qisqartirishga kirishildi. Gazeta va jurnallarning xilma-xil yo'nalishi bolsheviklar g'oyasi bilan singdirilgan bir xillikka almashdi.

1918-1920-yillar davomida mahalliy aholi tillarida va rus tilida bolshevikcha ruhdagi bir necha o'nlab gazeta va jurnallar nashr etildi[3,151]. Ommaviy nashrlar, radio partiya apparatining quroli sifatida, jurnalistlar esa "g'oyaviy frontdagi ofitserlar" sifatida talqin qilindi.

Matbuotga ommaviy targ'ibot va tashviqot vositasi degan qarash shakllanib bordi. Natijada ommaviy axborot vositalariga siyosiy tizimni mustahamlash va ommaviy g'oyaviy tarbiyalashning targ'ibotchisiga aylantirildi. Stalin ushbu masala bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri bunday degan edi: Nashrlar bu shunday narsaki, gazeta, jurnal va broshyuralar dunyodagi eng yaxshi targ'ibotdir.

“Jahonda gazeta, jurnal, va broshyuralardan ko‘ra yaxshi targ‘ibot vositasi mavjud emas. Nashrlar u yoki bu haqiqatni butun omaga ishontira oladi.”

XULOSA

Stalin bu yerda u yoki bu haqiqatni deganda bizning xalqimiz boshidan kechirgan tarixning achchiq “haqiqatlar”ini nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Sovet targ‘ibot mashinasi shunchalik darajada ish olib bordiki, buning natijasiga tarixning o‘zi guvohdir.

1922-yilda 232 ta gazeta nashr qilingan bo‘lsa, 1932-yilga kelib SSSRda 7,5 mingdan ortiq gazeta nashr qilina boshladi. 1940-yilga kelib ularning soni 8,8 mingga yetdi[6,371].

O‘rganilayotgan tarixiy davrda jamiyatning barcha sohalari ustidan partiyaning to‘liq hukmronligi o‘rnatildi. Fan va madaniyat, adabiyot va san‘at hamda ommaviy axborot vositalari Kompartiyaning targ‘ibot va tashviqot ishlariga to‘liq jalb etildi. Oqibatda milliy madaniyat, milliy ma‘naviyatdan chekinish hamda kommunistik ruhdagi g‘oyalarni singdirish avj oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinov R., Karimov SH. Vatan tarixi – T.: Sharq, 2010. bet 246. (Shamsutdinov R., Karimov SH. Homeland History - T.: Sharq, 2010. page 246.)
2. Argumentua.com/stati/ Игор Яковенко Советская пропаганда: секреты эффективности и смерти – С 2. (Argumentua.com/stati/ Igor Yakovenko Soviet propaganda: the secrets of efficiency and death - С 2.)
3. Jo‘rayev M., Nurillin R, S.Kamolov va boshq.; O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida –T.: Sharq, 2000. bet 141. (Jorayev M., Nurillin R, S. Kamolov and others; Uzbekistan in the period of Soviet colonialism - T.: Sharq, 2000. p. 141.)
4. Argumentua.com/stati/ Игор Яковенко Советская пропаганда: секреты эффективности и смерти – С 3. (Argumentua.com/stati/ Igor Yakovenko Soviet propaganda: the secrets of efficiency and death - С 3.)
5. История советской политической цензуры. Документы и комментарии. 1917-1993, кол авт – М. 1997. – С 159 (History of the Soviet political censure. Documents and comments. 1917-1993, coauthor - M. 1997. - С 159)
6. История СССР с древнейших времён до наших дней. –М.: 1967. Т. VIII. –С. 371. (History of the USSR from ancient times to the present day. -M.: 1967. T. VIII. -FROM. 371.)